

## Volgograd davlat agrar universiteti bilan hamkorlik

Har qanday hamkorlik zamirida ikki tomonlama manfaat yotadi. Bu esa taraqqiyotimizning tom ma'nodagi mezonidir, desak yanglishmaymiz. Xuddi shu ma'noda Volgograd davlat agrar universitetining (VoIDAU) rektori A.S. Ovchinnikov rahbarligidagi delegatsiya 18 iyun kuni TIQXMMIga tashrif buyurdi. Delegatsiya VoIDAU rektori A.S. Ovchinnikov, birinchi prorektor Bocharnikov V.S., tashqi aloqalar, marketing va qo'shimcha ta'lim bo'yicha prorektori Ye.N.Patrinlardan tarkib topgan.



TIQXMMI rektori institut rahbarlarini tanishtirish bilan yig'ilishni ochib berdi. Rektor institutning ta'limiy va ilmiy faoliyati haqida mufassal ma'lumot berdi. Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T. Salohiddinov tomonidan institutimizning xorij universitet va tashkilotlari bilan yo'lga qo'yilgan loyihalar, shu jumladan, Rossiyaning universitetlari bilan hamkorlikdagi dasturlar haqida ma'lumot keltirdi.

VoIDAU rektori samimiyat ila kutib olishgani uchun minnatdorchilik bildirgan holda universitetning TIQXMMI bilan yo'lga qo'yilishi mumkin bo'lgan ilmiy yo'nalishlar bo'yicha kelishib olindi. Yig'ilish so'nggida VoIDAU delegatsiyasiga esdalik sovg'alari ulashildi. VoIDAU delegatsiyasiga "D" binodagi laboratoriyalar ham ko'rsatildi. VoIDAU delegatsiyasi TIQXMMIga tashrifidan nihoyatda mamnun bo'ldi.



**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**